

## MUNIS – TARIXNAVIS VA TARJIMON

Vaxidova Lola Avdullayevna

*Navoiy viloyat Xatirchi tuman 4-umumiy o'rta ta'lim maktab oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annatotsiya:** *Ushbu maqolada Xorazm adabiyot gulshanining yana bir xushovoz bulbollaridan biri bo'lmish Munisning ayrim qirralarini ochib berishga harakat qilamiz. Ya'ni u she'r yozishdan tashqari tarjimon hamda tarixchi olim hamdir. Biz aynan Munisning ushbu jihatlariga maqola orqali urg'u berishga harakat qilamiz. Chunki, adabiy meros qay yo'sinda berilmasin, adabiyotimiz tarixi uchun biz uni o'rganmog'imiz zarurdir.*

**Kalit so'zlar:** *Xorazm, Feruzshoh, Ogohiy, "Ravzat us – safo", "Firdavs ul - iqbol", Eltuzarxon, Mirxond*

**Abstract:** *In this article, we will try to reveal some aspects of Munis, one of the most beautiful nightingales of Khorezm literature. That is, in addition to writing poetry, he is also a translator and a historian. We will try to emphasize these aspects of Munis through the article. Because, no matter how the literary heritage is given, it is necessary for us to study it for the history of our literature.*

**Key words:** *Khorezm, Feruzshah, Agozi, "Rawzat us – Safo", "Firdavs ul – Iqbal", Eltuzarkhan, Mirkhand*

Barchamizga ma'lumki, adabiyot qay davrga oid bo'lmisin o'sha davr va kelajak uchun ham so'z merosi hisoblanadi. Biz o'z nutqimizda ishlatayotgan so'zlarni o'z o'rnida mahorat bilan qo'llash orqali noyob qalb mahsullari yuzaga keladi. Darhaqiqat, adabiyotning qudratiga tan bermaslikning iloji yo'q. U hamma davrlar uchun muhim bo'lib kelgan va shundayligicha qoladi. Chunki adabiyot inson qalbining kuychisidir xoh u she'r bo'lsin, xoh roman. Fitrat adabiyotga shunday ta'rif beradi: "Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqinlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqinlarni yaratmoqdir. Bu ta'rif adabiyotning to'g'ri ta'rifidir. Shu bilan yozilgan asarlarga adabiy asar deyiladidir".

Endi biz maqolamiz mavzusiga qaytamiz. XIX asr bosqlarida Xiva xonligi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk insonlardan biri – Shermuhammad ibn Avazbiy mirob o'g'li Munis edi. 1778 yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'da mirob oilasida tavallud topgan adib: "Men, Munis, Xivada yashovchi yuz toifasidan bo'lgan Amir Eshimbiyning avlodidandirman", deb yozgandi. Darhaqiqat adabiyotimizning yorqin namoyondalardan bo'lgan, Ogohiyning amakisi va uni adabiyotga ham kirib kelishida sabab bo'lgan Munis ijodi haqida to'lqiroq ma'lumot berishga harakat qilamiz. Munisni bu darajada ijodkor qilib yetishishida albatta, u yashagan adabiy muhitning o'rni beqiyosdir. Aynan Munis, uning jiyani Ogohiy davrlarida adabiy muhit ancha rivojlangan va bir-biridan noyob asarlar yaratilayotgan davrga to'g'ri kelgan, bu esa ularning ijodi pag'onama- pag'ona rivojlanishiga turki bergen. Bu kabi adabiy muhitda o'sha davrda Xorazmda hukmdor bo'lgan Feruzshohning xizmatlari beqiyos. O'zi ham ijodkor bo'lgan bu buyuk davlat arbobi, o'zining zakiyligi bilan ko'plab nodir asarlar yaratilishida va mahorat bilan tarjima qilingan asarlarning dunyoga kelishiga sabab bo'ldi. Sho'ir yoxud ijodkor uchun adabiy sharoit o'ziga xos o'ringa egadir, albatta.

Munis Xorazmiy (taxallusi; asl ism-sharifi Shermuhammad Amir Avazbiy o‘g‘li) (1778—Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘i — 1829) — o‘zbek shoiri, tarixnavisi, tarjimon, xattoti va ma’rifatparvari. Dastlabki ma’lumotni tug‘ilgan qishlog‘ida olgan, keyinchalik Xiva madrasalarida o‘qigan. 1800-yilda otasi vafot etgach, Avaz Muhammad Inoq Munis Xorazmiyni saroyning farmonnavis kotibi qilib tayinlagan. Shermuhammad Munis Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida Avazbiy mirob oilasida tug‘ildi. 1800-yilda otasi va og‘a-inilari vafot etadi. Xorazmda Avazbiy inoq va uning o‘g‘li Eltuzarxon davrida yashadi, saroyda bosh mirob vazifasini bajardi. Ko‘rib turganingizdek, Munis nafaqat ijodkor, balki davlat arbobi ham bo‘lgan. O‘sha davrlarda miroblik judayam mas’uliyatli kasb bo‘lgan, unga faqat xonning ishongan odamlarigina tayinlangan. Munis bitta jangda vaboni yuqtiradi va vafot etadi. Uning o‘rniga uning jiyani Ogohiy amakisining kasbini ham, ijodini ham qizg‘in davom ettiradi.

Munisning bizgacha anchagina adabiy merosi yetib kelgan. Uning tarjimonlik sohasidagi yirik asari bu Temuriylar davri tarixchisi Mirxondning yetti daftardan iborat “Ravzat us-safous-safo” asarining uch daftarini tarjima qilishga ulgurgan. Munis olamdan ko‘z yungach, bu asar tarjimasini uning sadoqatli jiyani va shogirdi Ogohiy oxiriga yetkazgan. Munis ushbu asar tarjimasini 1812-yilda boshlaydi. Mirxond asarining birinchi bobu ustiga tarjimasini yakunlab, ikkinchisi ustida ish boshlaganda, Munis 1829-yil vafot etadi va Xivaga dafn etiladi. Va shu bilan bir inson muallifligida boshlangan tarjima boshqa bir insonga meros qoldi.

Munisning eng yorqin tarixiy asari bu Eltuzarxonning buyrug‘i bilan yozilajak bu asarning muqaddimasi va Xorazmning 1813-yilgacha bo‘lgan tarixini yorituvchi nonlarini yozishga ulgurgan. Ushbu asar nimaga 1813-yilgacha axir ijodkor 1829-yilda vafot etgan-ku, degan savol tug‘iladi, chunki u paytda Munis Mirxondning “Ravzat us-safo” asarini tarjima qilishni boshlagandi, shuning uchun ham bu asar voqealari shu yildan keyin to‘xtab qoldi. Lekin Munis ushbu asarni yakunlash mas’uliyatini yana Ogohiyga topshirdi. Demak, asarning mualliflari ikkita — Munis va Ogohiy. Munis “Firdavs ul-iqbol”da qadim zamonlardan 1806-yilgacha bo‘lgan voqealarni yoritishda ungacha yozilgan tarixga doir asarlardan, jumladan, Abulg‘oziyning “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlaridan foydalangan. Xorazmning 1806-yildan 1813-yilgacha bilan tarixini esa, o‘zi materiallar yig‘ib yozgan. Asarning ayniqsa shu qismlari Xorazmda ro‘y bergen tarixiy voqea-hodisalarining badiiyashgan bayonidir. Unda o‘zbeklar, turkmanlar va qoraqalpoqlar hayotiga, tarixiga oid juda ko‘p va aniq faktlar mavjud. Biroq Munisning tarixchi sifatidagi dunyoqarashi cheklangan bo‘lib, u eski traditsiyalarni buzmaslikka harakat qiladi. Hukmron tabaqa vakillarini, xon va uning yaqinlarini ba’zan maqtab ularning turkmanlar va qoraqalpoqlarga qarshi yurishlarini xaspo‘shlashga, oqlashga intiladi. Yovmut va chovdurlarning Xiva hukmronlari zulmiga qarshi g‘alayonlarini qoralaydi. Bunday o‘rnlarga tanqidiy munosabatda bo‘lmog‘imiz kerak. Biroq, bulardan qat’i nazar, asarning turli sahifalarida Vafoiy, Roqim, Ravnaq, Kiromiy, Abulg‘oziy kabi shoir, mudarris, tarixchilarining adabiy portreti shtrixlari, ular haqidagi qiziqarli naqllar, xotiralar keltiriladi. Asarda ko‘pdan ko‘p she’riy parchalar-ruboiylar, masnaviyalar, qit’alar, darslar, ta’rix she’rlar beriladi.

Bundan tashqari, kitobda o‘sha zamonda bino qilingan imoratlar, masjidu madrasalar ham qayd etiladi. Ularning qachon, kim tomonidan va nima maqsadda qurilganligi bayon qilinadi. Masalan, Muhammad Amin Inoq davrida qad ko‘targan “Madrasai inoqiya” to‘g‘risida Munis, jumladan,

quyidagilarni yozadi: “ Ul jumladin “Madrasai inoqiya “durki ma’mani ulamo va maskani fuzalodir. Masnaviy:

Aning har hujrasi jannat uyidur,  
Demay jannat uyi, rahmat uyidur.  
Bo‘lib fayzi azaldin bemadaro,  
Sari devoridan ilm oshkoro.

“Firdavsу-l-iqbol”ning to’qqizta qо’lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, ulardan ikkitasi, Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qо’lyozmalari intitutida (inv. S 571 (590 oa), Ye-6-I (590 ov), olitasasi O’zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida (inv. 821/I, 5364/I, 9979/I, 5071, 7422, H. Sulaymonov nomidagi fond. 275/I), yana bir nusxasi esa Xelsinkida saqlanmoqda.

“Firdavsу-l-iqbol” badiiy-tarixiy nasrda Ogahiy uchun katta tajriba maktabi bo‘lgани, shubhasiz. Bu asarni yozish jarayonida orttirilgan tajriba keyinchalik shu turdagи boshqa asarlarini yozishda unga qо’l kelgани aniq. Munisning yozishicha, Xiva xoni Eltuzarxon uni o’z saroyiga chaqirib, bunday amr qiladi: “...kerakkim, bizning nasabi humoyunimizni so’z devonida kursinishin va ajdodi amjodimiz asomiysin tarix xotamida naqshi nigin qilsang va o’z holotimiz va ba’zi futuhotimiz bilakim, ziynati afsona va nosixi “Shahnoma”dur, nazm rishtasig‘a durri maknun tersang va nasr bisotig‘a gunogun ziynat bersang, to bo‘lg‘aykim, davron sahoifi fano tundbodi bila parishon bo‘lub, olam koshonasi adam seli bila vayron bo‘lg‘uncha avsofi hamidamiz zamon avroqida boqiy qolg‘ay va zikri pisandidamiz jahon majolisida salotin bazmig‘a sho‘rish solg‘ay”. (Munis Shir Muhammad Mirab and Agahi Muhammad Riza Mirab. Firdaws al-iqbal: History of Khorezm. Ed. By Yu. Bregel. Leiden: Brill, 1988, R.18. – Maqola Yuriy Bregel tayyorlagan ana shu ilmiy-tanqidiy matn asosida yozildi – N.A.).

XIX asr boshlarida Xiva xonligi tarixida o’chmas iz qoldirgan buyuk insonlardan biri – Shermuhammad ibn Avazbiy mirob o’g’li Munis edi. 1778 yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog’ida mirob oilasida tavallud topgan adib: “Men, Munis, Xivada yashovchi yuz toifasidan bo‘lgan Amir Eshimbiyning avlodidandirman”, deb yozgandi.

Uning bolalik va yoshlik yillari Qiyot qishlog’ida o’tdi va ulg’aygach, Xivadagi madrasalardan birida tahsil ko’rdi va ustozи Sayyid Eshonxo’jadan saboq oldi. Arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti, shuningdek klassik muzika hamda tarix fanini qunt bilan o’rgandi. U mohir hattot bo‘lib kufiy, rayhoniy, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan. Uning otasi Avazbiy 1800 yilda vafot etgach, xon 22 yashar Shermuhammadni saroya taklif qiladi, uni qazuv, qachuv, (suv xo’jaligi) ishlari bo‘yicha kotib, 1812 yilda amakisi Erniyozbek mirob o’lib, xon Munisni mamlakatni bosh mirobi qilib tayinlaydi. She’riyat olamida uning taxallusi Munis bo‘lib, lug’aviy ma’nosи “ulfat”, “hamdam”, “do’st” demakdir. Nizomiydan tortib, to o’zi yashagan davrga qadar o’tgan so’z san’atkorlarining ijodi bilan oshno bo‘lgan shoir, o’zining “Manga” radifli g’azalida Nizomiy, Xisrov Dehlaviy ijodidan naqadar lazzatlanganligini, Hofiz Sheroyziy, Lutfiy asarlari orqali she’riyat bo’stoniga qadam qo’yanini, Firdavsiyning ijod bog’ida orom olganini, Anvariyydan nur emib, Sa’diy va Jomiydan cheksiz bahramand bo‘lganini, Bedilning ajoyib so’zlaridan fayz topib, nihoyat buyuk Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyni o’ziga homiy bilganini zo’r mammuniyat bilan qayd qiladi.

Qilsa hosid dahli bejo so’z aro yo’qtur g’amim,  
Kim bu ma’nida Navoiy ruhi homiydur manga.

Shoir Navoiyni homiygina emas, balki o'ziga ustod (pir) deb anglatdi:  
So'z ichra Navoiy jahongirdurur,  
Munisga ma'onи yo'lida pirdurur.

Munis tez orada el-yurt hamda Xiva hukmdori Avaz inoq nazariga tushadi. 1804 yilda shoir alifbo sifatida foydalanish uchun "Savodi ta'lim" kitobini yozib tugatadi. Yana shu yili ijodi namunalarini "Munis ul-ushshoq" ("Oshiqlar do'sti", 1804 yilda) degan nom bilan to'plab, uni 1813 yilda 16 892 misradan iborat katta devonga aylantiradi. Ushbu asarda shoirning g'azallari, muxammaslari, ruboilyari, mustazodlari, tuyuqlari, to'rtlik va maxsus ikkilik baytlari mavjud bo'lib, bulardan tashqari devon oxiriga shoirning 1804 yilda nazm bilan yozib tamomlangan kalligrafiyaga oid "Savodi ta'lim" nomli asari ham ilova qilingan. Ushbu kichik risolada chiroyli xat yozish usullari bayon qilingan. Risola ikki qismidan iborat. Asarning birinchi qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik va bu ish uchun kerakli asboblar to'g'risida so'z yuritiladi. Ikkinci qismida esa, xat mashqi va uning usuli haqida amaliy yo'l bilan ta'lim beriladi. Shoir o'zining ushbu risolasi boshida kishilik jamiyatida yozuvning katta ahamiyatga ega ekanini qayd qilib, shunday bayon qiladi:

So'z mahzanining nishonasi ham,  
Ma'ni durining xazonasi ham,  
Har so'zki, ko'nguldin o'ldi mavjud,  
Xat bo'lmasa bo'lg'ay erdi nobud.

O'ttiz yildan ortiq ijod qilgan adibning ota-bobolaridan meros bo'lib kelayotgan sulolaviy kasb miroblik haqida "Ornalar" nomli risolasi biz uchun nihoyatda qimmatlidir. Ushbu kitob tufayli biz vohada suvchilik kasbi, dehqonchilik tarixi, suv uchun bo'lgan urushlar tarixi bilan bog'liq ijtimoiy siyosiy voqealardan xabardor bo'lamicha.

Xiva xoni Eltuzarxon (1804-1806) Munisga Xorazm tarixini bitishni topshirdi. Munis bu asarga "Firdavs-ul iqbol" ("Baxt bog'i" yoki "Baxt-saodat bog'i") deb nom qo'ydi. Asar Munis va jiyani Ogahiy qalamiga mansub bo'lib, u afsonaviy rivoyatdan boshlanib, 1825 yilgacha Xorazmda sodir bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi. Munis bu asarni yozib tugata olmagan, u qadim zamonlardan boshlab Muhammad Rahimxon (1806-1825) hukmronligining 7-yili, ya'ni 1813 yilgacha bo'lgan voqealarni yozib ulgirgan, 1813 yildan 1825 yilgacha bo'lgan voqelar Ogahiy qalamiga mansub bo'lib hijriy 1255 (milodiy 1839) yili yozib tugallangan.

O'z davrida Munis turkman shoiri Zeliliy (1800-1853) (Oloqulixon davrida zindonga tashlangan) va qozoqlarning Kichik juzi oqini (baxshi shoiri) Mahambet (1800-1846) (Olloqulixon tomonidan saroyda qabul qilingan, lekin qarashlari to'g'ri kelmagani uchun Xiva xonligidan chiqib ketgan) bilan ham fikr bo'lgan, ularning yuragi qo'ridan otilib chiqayotgan har bir nido yoki ishqiy she'rlarida vatanga va o'z xalqiga muhabbat hissi, o'zi yashagan zamonaga nisbatan norozilik fikrlari olg'a suriladi: — haqsizlik, zulmga qarshi norozilik,adolat, xalqqa muhabbat, saxiylik, vafo, ma'rifatparvarlik, ilm-fanga homiylik, jaholatga qarshi kurash, insoniy fazilatlar ulug'langan.

"Firdavs-u-l-iqbol" debocha va muqaddimadan tashqari besh bobdan tarkib topgan. Bu haqda Munis quyidagicha ma'lumot beradi: "...bu muxtasar shuru'ig'a xomai ibtido suruldi, chun bahori iqboldi sohibqironiy bila firdavsdek ziynat topib erdi, binoan alayh "Firdavs-u-l-iqbol"ga mavsum bo'ldi. Bir muqaddima, besh bob, bir xotimag'a taqsim topti. Hazrat Izidi kombaxshdin umid ulkim, unvonni iftitohin tatammai ixtitomg'a mavsul va muqaddimai og'ozin xotimai anjomg'a mashmul qilg'ay.... Muqaddima ba'zi maxsusoti a'loxoqoniy zikridakim, osori iqboldi sohibqironiy erdi. Avvalgi

bob hazrat Odam alayhissalom ijodidin (yaratilishidan – N.A.) Nuh alayhissalom avlodig’acha mazkur bo’lur. Ikkinci bob Yofas alayhissalomdin qo’ng’irot sho “basig’acha mo’g’ul podshohlarining zikrida. Uchunchi bob Qurlos avlodidin podshohliq marotibig’a yetganlar zikridakim, so’ngi Abulg’ozixon ibn Yodgorxonidur. To’rtunchi bob hazrat podshohi sohibqironning ajdodi kirom va aboi zu-l-ehtiromining zikrida. Besinchchi bob hazrat podshohi sohibqironning valodati humoyunidin bu risolai saodatmaqola itmomig’acha har vaqoe’kim osori sohibqironiydin vuqu’ topmish va vuqu’ topg’usidur – zikr qillur. Xotima avliyoyi izom va ulamoj kirom va umaroj zu-l-ehtirom va sohibdavlat beklar va zakiytab’ shoirlar va donishmand fozillar va falotunfitrat hunarmandlar va ba’zi umuri g’aribakim, hazrat podshohning ayyomi maymanatanjomida vuqu’ topibdur, alar hikoyotig’a maxsusdur”. Munis asarning kompozitsion tuzilishini ana shunday rejalashtirgan. Ya’ni qisqacha bu asar haqida xulosa quyidagicha, Asar muqaddima, 5 bob va xotimadan iborat. 1-bobda Odam Atodan to Nuh payg’ambar avlodigacha bo’lgan hodisalar yoritilgan. 2-bobda Yofasdan Qo’ng’irot sho ‘basigacha bo’lgan mo’g’ul hukmdorlari davri xususida fikr yuritilgan. 3-bobda Kurlos avlodiga mansub podshohlar davrida sodir bo’lgan voqealar to’g’risida yozilgan. 4-bobda Eltuzarxonning otabobolari hayoti tasvirlangan. 5-bobda Eltuzarxonning tug’ilishidan bu asarning yozilib tamom bo’lishiga qadar bo’lgan voqealar xususida qalam tebratilgan. Xotima esa olimlar, avliyo, amir, bek, shoir, hunarmandlar xaqida ma’lumotlarni o’z ichiga oladi. Biroq bir qancha sabablarga ko’ra, muallifga asarni ushbu reja asosida nihoyalash nasib etmagan. Birinchidan, adib asarning eng qizg’in voqealari tasvirini yozayotgan kezda Muhammad Rahimxon unga Mirxondning mashhur “Ravzatu-s-safo”sinı o’zbek tiliga tarjima qilish vazifasini topshiradi. Ikkinchidan, 1929 yili Munisning vafot etishi, bu rejaning amalga oshishiga monelik qiladi. Shu bilan asar tugallanishi Ogohiyga qoladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, Shermuhammad Munis XIX asrda Xorazmda ko’tarilish bosqichda bo’lgan adabiy hayotga o’zgacha jon bag’ishladi. Undan keyin ergashgan shoirlar, tarixchilar, tarjimonlar uning asarlaridan bahra topadilar, ustozlik mavqeini e’tirof etdilar. Bular ichida, ayniqsa, Ogohiy, Komil Xorazmiy, Muhammad Yusuf Bayoniy ijodini Munis ijodi bilan bog’lovchi vositalar judayam ko’p. Munis asarlari nafaqat u davrda, balki hozirgi kunda, zamondoshlarimiz uchun ham ma’naviy-estetik oziq berib kelmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- Shermuhammad Munis. Saylanma. -T., 1980.
- Yunusov M. Shuar o’zgacha xaylining sohib kamoli. “Barhayot meros sahifalari”.-T., 1986.
- Ahmedov T. Munis.-T., 1980.
- <https://uz.m.wikipedia.org>
- <https://tafakkur.net>